

«SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZISH HOLATIDA MOLİYAVIY XAVFNI
SUG'URTALASH TO'G'RISIDA»

BOSH SHARTNOMA

50/1/84-BF/26003

Toshkent sh.

“23” yanvar 2026 yil.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining 2022-yil “25” fevraldagi 00037-sonli Sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi Litsenziyasi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradigan, keyingi o'rinlarda “SUG'URTALOVCHI” deb nomlanuvchi “MY-INSURANCE” AJ ST nomidan 2026 yil 05 yanvardagi 66-sonli bosh ishonchnoma asosida ish yurituvchi Bosh direktor o'rinbosari A.X.Nurmonov bir tomondan, keyingi o'rinlarda “NAF OLUVCHI” deb nomlanuvchi, «BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MChJ, nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Direktor B.T.Axmedov ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar”, alohida xollarda “Tomon” deb atalib, shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash to'g'risida Bosh shartnomani (*bundan buyon matnda - Bosh shartnoma deb yuritiladi*) tuzdilar:

1. Mazkur Bosh shartnomaning predmeti O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (Shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) moddalariga tartibida Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnoma shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.

2. Naf oluvchining topshirig'iga ko'ra, Sug'urtalovchi o'z zimmasiga, mazkur Bosh shartnomanning ajralmas qismi hisoblanadigan 2026 yil «23» yanvardagi “Shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni sug'urtalash” qoidalarini (*bundan buyon matnda – “Sug'urta qoidalarini” deb yuritiladi*) shartlariga muvofiq, sug'urta hodisasi sodir bo'lishi oqibatida Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

3. Sug'urta mukofotini to'lanishi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining Sug'urta qoidalarini va elektron sug'urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, Sug'urta qoidalariga qo'shilishiga so'zsiz va to'liq roziligini (akseptlaganini) bildiradi.

4. Har bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnomaga va Sug'urta qoidalariga qo'shilishi Sug'urtalovchi tomondan har bir sug'urta shartnomasi doirasida berilgan elektron sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi.

5. Tomonlar Sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytidan, shuningdek mobil ilovalardan, elektron pochtdan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda elektron sug'urta polislarini rasmiylashtirishga haqli.

6. Tomonlar, Sug'urta qoidalariga muvofiq elektron sug'urta polisining bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug'urta qoidalarida bo'lgan shartlar, shu jumladan sug'urta polisi matniga kiritilmagan shartlar, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi va Naf oluvchi uchun majburiydir.

7. Mazkur Bosh shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar, Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Sug'urta qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.

8. Mazkur Bosh shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi va taraflarning birini tashabbusi bilan ikkinchi tarafni 30 kun oldin ogoxlantirgan xolda bekor qilinishi mumkin, biroq mazkur Bosh shartnoma bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sugurta polislar muddati tugaguniga qadar amalda bo'ladi.

9. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITLARI

SUG'URTALOVCHI "MY-INSURANCE" AJ ST

MANZILI: Toshkent sh., Mirobod tumani,
Kichik mirobod ko'chasi, 95-uy
BANK: TIF "MILLIY BANK" SAYOHAT
BO'LIMI
MFO: 00450
INN: 207 002 342
X.R.: 2020 8000 6047 8606 6555
Elektron pochta: info@myinsurance.uz
TEL.: 71-205-19-19, 97-729-00-19

Bosh direktor o'rinbosari



imzo

NAF OLUVCHI

«BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MChJ

MANZILI: Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Botkin ko'chasi, 8a uy
BANK: ATB "UZSANOATKURILISHBANKI"
bosh ofis
MFO: 00440
INN: 207135350
X.R.: 2021 6000 0049 4321 8001
Elektron pochta: mko.biznesfinans@gmail.com
TEL.: (71) 200-00-97

Direktor


M.O:




imzo

toparct:

toparct

“KELISHILGAN”
«BIZNES FINANS MIKROMOLIYA
TASHKILOTI» MChJ
Direktor
 (imzo va muhr o'rnini) 
“23” yanvar 2026 yil

“TASDIQLAYMAN”
"MY-INSURANCE" AJ
Sug'urta tashkiloti
Bosh direktori o'rinbosari
 (imzo va muhr o'rnini) 
“23” yanvar 2026 yil

№ 50/11/84-01/2026 SONLI

SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZISH HOLATIDA MOLIYAVIY XAVFNI SUG'URTALASH QOIDALARI

1-BO'LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Mazkur “shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash” qoidalarini (keyinchalik matnda – Sug'urta qoidalarini deb yuritiladi) "MY-INSURANCE" AJ ST (keyinchalik matnda – Sug'urtalovchi deb yuritiladi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, «BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MChJ (keyinchalik matnda – Naf oluvchi deb ataluvchi) mijozlariga Umumiy sug'urta sohasining “shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash” qoidalarini doirasida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartib va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan shartlarga va/yoki qo'shimcha kelishilgan ushbu Sug'urta qoidalarining ajralmas qismi bo'lgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganida Naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lash orqali yetkazilgan zarar o'rnini quyida ko'rsatilgan tartibda va hajmda qoplash majburiyatini oladi, shu shart bilan-ki, bunda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi (keyinchalik matnda – Qarz oluvchi deb yuritiladi) ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan miqdorda, tartibda va muddatda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi.

1.3. Mazkur sug'urtalash qoidalariga asosan Qarz oluvchiga (jismoniy shaxsga) berilgan mikroqarzning qaytarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan Naf oluvchining mulkiy manfaatlari sug'urta obyekti hisoblanadi.


Bunda mazkur mulkiy manfaatlarga ushbu Sug'urta qoidalarida sanab o'tilgan tavakkalchiliklardan bevosita yuz bergan sug'urta hodisasi yuzaga kelganida zarar yetkazilishi mumkin.


1.4. Naf oluvchi, Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga taqdim etgan hujjatlar va ma'lumotlar (mikroqarz shartnomalari nusxalari, Qarz oluvchining hujjatlari) ushbu Sug'urta qoidalariga asosan berilgan ya'ni mazkur qoidalarining 1-ilovasidagi tegishli Ariza-anketaning ajralmas qismi ekanligini, shuningdek ular ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlar ishonchli hamda haqiqatga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarga ega ekanligini tasdiqlaydilar.

2-BO'LIM. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

2.1. Quyidagi badda keltirilgan atamalar ushbu Sug'urta qoidalarini doirasida quyidagi ma'nolarga ega:

Atama	Ta'rif
Shartnoma	Naf oluvchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarzdor o'rtasida tuzilgan shartnoma.

Imzo: Sug'urtalovchi 

Imzo: Naf oluvchi 

	Sug'urta hodisasi	Sug'urtalangan Shartnomaga muvofiq Qarzdor tomonidan o'zining shartnoma majburiyatlarini shartnomada ko'rsatilgan muddat davomida bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi.
	Kutish davri	Kutish davri – sug'urta hodisasi sodir bo'lgan sanadan boshlab 1 (bir) oy.
	Sug'urta polisi	Sug'urta shartnomasining tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, Naf oluvchiga Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanidan keyin topshiriladi.
	Shartsiz franshiza	Zararning Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan miqdoridir. Agar zarar miqdori franshiza miqdoridan oshsa, sug'urta to'lovi miqdoridan franshiza summasi ayiriladi.

3-BO'LIM. SUG'URTA XATARLARI VA SUG'URTA HODISALARI.

3.1. Quyidagi holatda sug'urta hodisasi sodir bo'lgan deb hisoblanadi:

a) Sud tomonidan shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda va sud tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik natijasida yuzaga kelgan qarzdorliklarni muddatidan oldin undirish belgilanganida, kutish davri o'tganidan so'ng.

b) Shartnomada belgilangan mikroqarzni qaytarish (so'ndirish)ning oxirgi sanasidan boshlab, kutish davri o'tgandan so'ng Qarz oluvchining Naf oluvchi oldidagi moliyaviy majburiyatlari bo'yicha talablarni qondira olmasligi ya'ni o'z majburiyatlarini bajara olmasligi xolatida.

Izoh: 3.1. bandi a) va b) kichik bandlarida yuzaga kelgan xodisalar yuzasidan qo'shimcha tartibda (to'lovga qobiliyatsizligini tasdiqlovchi xujjatlar, sud organlari va boshqa organlar xujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunning 40-moddasi 3-qismi talablari asosida sud ijrochisining qarori taqdim etilish shart);

v) Qarzdorning baxtsiz hodisa natijasida vafot etgandan yoki 1-gurux nogironligi sababli.

3.2. Mazkur shartnomaning 3.1.-bandida belgilangan shartlar bajarilishi yoki bajarilmasligidan qat'iy nazar Sug'urtalovchi o'zining huquqidan foydalangan holda sug'urta tovonini to'lab berish huquqiga ega.

4-BO'LIM. ISTISNOLAR

4.1. Quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan zararlar qoplanmaydi:

- Naf oluvchi/Qarzdorning qasddan sodir etgan harakatlari (harakatsizligi), ya'ni sug'urta hodisasining ro'y berishiga qasddan qilgan harakatlari natijasida yuzaga kelishi hamda Naf oluvchi/ Qarzdor tomonidan shartnoma doirasida sodir etilgan jinoyat;

- to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ishda jismoniy shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari oqibatida qasddan to'lovga qobiliyatsizlikni vujudga keltirganligi xolatlari;

- O'z.Res.FK 954-moddasida ko'rsatilgan xolatlarda;

4.2. Quyidagi zararlar sug'urta qoplamasiga kiritilmaydi:

- Yo'qotilgan foyda (daromad yo'qotilishi);

- Xar qanday Jarima va penyalar.

- Sug'urta hodisasi va zararning miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmasa (taqdim etilmasa);

5-BO'LIM. SUG'URTA MUKOFOTINI TO'LASH VA ELEKTRON SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

5.1. Sug'urta mukofoti summasi mikroqarz shartnomaning ta'minot miqdori (su'gurta javobgarligi) summasidan yillik 10 foiz miqdorida ya'ni 2-Ilovada belgilangan tariflar miqdorida hisoblanadi.

5.2. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan u dastlabki ma'lumotlarini (mikroqarz shartnomasi tuzish uchun taqdim etiladigan xujjatlar) Sug'urtalovchiga taqdim etgan kundan e'tiboran 3 (uch) kun ichida bir yo'la va to'liq hajmda to'lanishi lozim.

5.3. Sug'urtalovchining Elektron sug'urta polisi doirasida sug'urta tovonini to'lash majburiyati, Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda, Elektron sug'urta polisida ko'rsatilgan muddatlarda amal qiladi.

5.4. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urtalovchining javobgarligi haqiqatda to'langan Sug'urta mukofoti miqdoriga mutanosib ravishda belgilanadi.

5.5. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi badali to'langan kun deb, pul mablag'lari Sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan kun hisoblanadi.

5.6. Elektron sug'urta polisi amaldagi sug'urta faoliyati qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtiriladi hamda sug'urta mukofoti/uning birinchi/navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgandan keyin zudlik bilan onlayn rejimda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga taqdim etiladi.

5.7. Sug'urta qoidalariga muvofiq barcha hisob-kitoblar so'mda amalga oshiriladi.

5.8. Ushbu Sug'urta qoidalariga ko'ra Sug'urta shartnomasi Sug'urta polisining aslini Sug'urta qildiruvchiga taqdim etish orqali tuziladi.

6-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Shartnoma tuzish va uni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni Naf oluvchi/Qarz oluvchidan so'rash;

6.1.2. Sug'urta polisi amal qilayotgan davrda — sug'urta xavfi darajasi oshgan yoki oshmaganidan qat'i nazar — Qarz oluvchi bergan ma'lumotlarning haqiqatga mosligini, shuningdek, uning shartnoma shartlariga amal qilayotganligini tekshirish;

6.1.3. Naf oluvchining davo qilish xuquqi to'langan sug'urta tovonni miqdorida Sug'urtalovchiga (subrogatsiya) tartibida o'tadi;

6.1.4. Amaldagi qonunchilikka va ushbu Sug'urta qoidalari shartlariga muvofiq sug'urta to'lovini to'lashdan to'liq yoki qisman bosh tortish, polisni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topishni talab qilish;

6.1.5. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki ushbu Sug'urta qoidalari bilan belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

6.1.6. Naf oluvchiga sug'urta tovonni to'langanidan so'ng, Qarzdor Sug'urtalovchining regress talabiga binoan 10 (o'n) bank kuni ichida to'langan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qoplashini talab qilish;

6.1.7. Sug'urtalovchi mazkur loyihaning umumiy zararlilik (samaradorlik) holatidan kelib chiqqan holda ushbu qoidalarining 4.2. bandida keltirib o'tilgan shartlarni istisno qilgan holda sug'urta qoplamasini to'lash;

6.1.8. Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli.

6.2. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.2.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Sug'urtalovchi haqida ma'lumot olish, Sug'urta qoidalari shartlari bilan tanishish;

Imzo: Sug'urtalovchi

Imzo: Naf oluvchi

6.2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Sug'urta qoidalariga muvofiq boshqa huquqlardan foydalanish.

6.3. Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Sug'urta hodisasi yuz berganida, Sug'urta qoidalarida belgilangan tartibda va miqdorda sug'urta tovonini olish;

6.3.2. Sug'urtalovchining o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilish;

6.3.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Sug'urta qoidalariga muvofiq boshqa huquqlardan foydalanish.

6.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

6.4.1. Naf oluvchi, Qarz oluvchini sug'urta shartlari bilan tanishtirish;

6.4.2. Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urta qoidalarida asosida to'lovni amalga oshirish;

6.4.4. Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

6.5. Naf oluvchi, Qarz oluvchining majburiyatlari:

6.5.1. Shartnoma tuzish vaqtida zarur ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish;

6.5.2. Sug'urta davrida taqdim etilgan ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida Sug'urtalovchini xabardor qilish;

6.5.3. Naf oluvchiga sug'urta to'loni to'langanidan so'ng, Qarzdor Sug'urtalovchining regress talabiga binoan 10 (o'n) bank kuni ichida to'langan sug'urta tovonini Sug'urtalovchiga qoplashi shart;

6.5.4. Agar sug'urta to'lovi amalga oshirilganidan so'ng zarar uchinchi shaxslar tomonidan qoplangan bo'lsa — Sug'urtalovchiga to'lovni qisman yoki to'liq qaytarish;

6.5.5. Sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish;

6.5.6. Sug'urta mukofotini belgilangan miqdor, tartib va muddatda to'lash;

6.5.7. Sug'urta xavfi darajasi o'zgarsa, bu haqda Sug'urtalovchini ogohlantirish;

7-BO'LIM. QOIDALARNI TUZISH TARTIBI VA AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur Sug'urta qoidalarida taraflar tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va har bir berilgan sug'urta polislarida ko'rsatilgan muddatlarda amal qiladi.

7.2. Sug'urtalovchining ushbu Sug'urta qoidalarida bo'yicha sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyati faqat belgilangan sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda yuzaga keladi. Agar sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'lanmasa, Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish bo'yicha majburiyati ushbu mukofot (yoki uning bir qismi) to'langan paytdan boshlab yuzaga keladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri tugaguniga qadar amal qiladi. Sug'urta mukofoti to'langan deb, mablag'lar Sug'urtalovchining yoki uning sug'urta agentining bank hisob raqamiga tushgan sana hisoblanadi.

7.3. Sug'urta polisini rasmiylashtirish uchun Qarz oluvchi Sug'urtalovchiga ariza taqdim etadi, unda Qarz oluvchi sug'urta xavfi darajasini aniqlash uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha holatlar haqida Sug'urtalovchini xabardor qilishi shart.

8-BO'LIM. SUG'URTA QOIDALARI/POLISINI BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Sug'urta polis quyidagi hollarda bekor qilinadi:

a) amal qilish muddati tugaganida;

b) Sug'urtalovchi Naf oluvchi oldida o'z majburiyatlarini to'liq bajarganida;

v) Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini (badal) shartnomada belgilangan muddatda to'lamaganida;

g) Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda tugatilganida;

d) Sud tomonidan Sug'urta qoidalarini haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror chiqarilganida;

ye) Sug'urtalovchi va/yoki Sug'urta qildiruvchi vakilining ishonchnomasida belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqqan holda ushbu shartnoma tuzilgan bo'lsa;;

yo) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

8.2. Sug'urta shartnomasi Naf oluvchi yoki Sug'urtalovchining talabiga ko'ra yoki tomonlar kelishuviga ko'ra muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

8.3. Naf oluvchi /Qarz oluvchi istalgan vaqtda sug'urta polisidan voz kechishga haqli. Agar Naf oluvchi/Qarz oluvchi polisni muddatidan oldin bekor qilsa, u to'lagan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

8.4. Tomonlar sug'urta polisini/qoidalarini muddatidan oldin bekor qilish niyatida bo'lsalar, bu haqda kamida 30 kun oldin bir-birlarini yozma ravishda xabardor qiladilar.

9-BO'LIM. SUG'URTA TO'LOVI MIQDORINI ANIQLASH VA UNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

9.1. Sug'urta qoidalarini shartlariga ko'ra, sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, Naf oluvchi voqea sodir bo'lganidan boshlab 5 (besh ish) kun ichida o'ziga ma'lum holatlar va sabablarni ko'rsatgan holda Sug'urtalovchining yuridik manziliga yoki pochta manziliga yozma ravishda xabar berishi shart.

9.2. Sug'urta hodisasi ro'y berganda Naf oluvchi Sug'urtalovchiga kutish davri tugagandan so'ng, voqea sodir bo'lganligi to'g'risida ariza (xabarnoma) berishi, shuningdek Sug'urtalovchiga yetkazilgan zarar sodir bo'lganligini va miqdorini aniqlash imkonini beruvchi hujjatlarni:

- sud organlari va boshqa organlar xujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunning 40-moddasi 3-qismi talablari asosida qaror.

- sug'urta (polis).

- Qarzdorning sug'urtalangan shartnoma majburiyatlarini buzishi natijasida Naf oluvchining ko'rgan zarar miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar.

- qarzdorning baxtsiz hodisa natijasida vafot etganligi yoki I-gurux nogironligini tasdiqlovchi xujjatlar (o'lim guvoxnomasi o'lim sababini ko'rsatgan xolda TMEK xulosasi).

9.3. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olgan holatda, Sug'urta ho'chisasi to'g'risidagi dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma Sug'urtalovchi, Naf oluvchi ishtirokida rasmiylashtiriladi. Sug'urta to'loni to'lovi Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolagandan keyin, 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiradi.

9.4. Sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida Naf oluvchining ko'rgan zarari miqdori ushbu Sug'urta qoidalarida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilangan tartibda aniqlanadi.

9.5. Sug'urtalovchining sug'urta to'lonini to'lash yoki to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Naf oluvchiga u sug'urta to'lonini to'lashni so'rab taqdim etgan ariza va ushbu shartnomaning 9.2. bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni taqdim etganidan keyin 10 (o'n) kalendar kundan kechiktirmay xabardor qilinishi (sug'urta to'lonini to'lash) yoki rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

9.6. Sug'urta to'lovi sug'urta hodisasi tan olinganidan va sug'urta hodisasi to'g'risida Dalolatnoma imzolanganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida Naf oluvchining bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.7. Sug'urtalovchi quyidagi hollarda sug'urta to'lonini to'lashni rad etishga haqli:

Imzo: Sug'urtalovchi

Imzo: Naf oluvchi

a) sug'urta hodisasi yuz bergani haqida shartnomada belgilangan muddatda Sug'urtalovchiga xabar berilmagan bo'lsa, agar Sug'urtalovchi bu haqida o'z vaqtida xabardor bo'lmaganligi sug'urta to'lovini to'lash majburiyatiga ta'sir qilgan bo'lsa;

b) sug'urta hodisasi va zararining miqdorini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;

10-BO'LIM. SUBROGATSIYA (REGRESS)

10.1. Agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, (Naf oluvchi)ning sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxs (Qarzdor)dan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi hamda Sug'urtalovchida o'sha xaxoti Qarzdorning bank plastik kartalaridan akseptsiz tarzda (so'zsiz) qarzdorlikni yechib olish huquqi vujudga keladi.

10.2. Naf oluvchi Sug'urtalovchiga unga o'tgan talab huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va dalillarni topshirishi, shuningdek, zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishi shart.

10.3. Naf oluvchi Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun Qarz oluvchiga nisbatan o'z talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquq Naf oluvchining aybi bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmasa, Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatidan to'liq yoki tegishli qismda ozod qilinadi.

10.4. Qonunchilikda belgilangan hollarda va miqdorlarda, Sug'urtalovchi, sug'urta to'lovini amalga oshirgandan so'ng, zarar yetkazgan aybdorga nisbatan qayta (regress) talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

11-BO'LIM. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

11.1. Ushbu Sug'urta qoidalaridan kelib chiqqan bahslar, kelishmovchiliklar yoki talablarni muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Sug'urtalovchi joylashgan manzildagi sudida hal etiladi..

11.2. Tomonlarning Sug'urta qoidalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlari sug'urta polisi va ushbu Sug'urta qoidalarining tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq boshqa hujjatlardagi ma'lumot va qoidalarni inobatga olgan holda belgilanadi.

11.3. Sug'urta qoidalaridan kelib chiqadigan talablar bo'yicha da'vo qonunchilikda belgilangan da'vo muddati ichida kiritilishi mumkin.

12-BO'LIM. FORS-MAJOR

12.1. Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun fors-major holatlari amal qilgan davrda javobgar emaslar.

12.2. Fors-major holatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mavjud sharoitda oldindan ko'rish, oldini olish yoki bartaraf etish imkoni bo'lmagan favqulodda holatlar, ya'ni: tabiiy ofatlar (zilzila, ko'chkilar, dovullar, qurg'oqchilik va Shartnomada ko'rsatilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, blokadalar, davlatlararo yoki davlat organlari tomonidan joriy etilgan cheklovlar yoki taqiqlar, hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

12.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar majburiyatlarini bajarish muddati ushbu holatlar amal qilgan davrga mos ravishda suriladi.

13-BO'LIM. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Taraflar ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion xarakatlarni to'liq ta'qiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

13.2. Taraflar ushbu Sug'urta qoidalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning masabdor shaxlari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

13.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Taraf yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

14-BO'LIM. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Ushbu Sug'urta qoidalari shartlarini o'zgartirish Tomonlarning o'zaro roziligi asosida amalga oshiriladi. Shartnoma shartlarini o'zgartirish bo'yicha kelishuv yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

14.2. Sug'urta qoidalari shartlari o'zgartirilgan taqdirda, majburiyatlar, yozma kelishuvda ko'rsatilgan sanadan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

14.3. Ushbu Sug'urta qoidalarida nazarda tutilmagan barcha holatlar bo'yicha Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonun, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida"gi Qonun hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladilar.

14.5. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi va Qarz oluvchi ushbu Sug'urta qoidalari, ilovalar hamda qoidalarga aloqador boshqa hujjatlar mazmuni bo'yicha uchinchi shaxslarga oldindan yozma ruxsatsiz ma'lumot bermaslik va maxfiylikni ta'minlash uchun javobgardirlar.

14.6. Shartnomaning Tomonlari, shuningdek, har bir tomonning vakillari va xodimlari ushbu Shartnomaga aloqador tijorat yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni boshqa tomonlarning oldindan yozma rozilgisiz oshkor etmasliklari shart.

14.7. Ushbu Shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, Sug'urtalovchi, va Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi tomonidan alohida saqlanadi va barcha nusxalar teng yuridik kuchga ega.

15- SUG'URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:**"MY-INSURANCE" AJ ST**

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent sh., Mirobod tumani, kichik Mirobod ko'chasi, 95-uy

X/R: 20208000104786066011

Bosh direktor: m.o'.

imzo

Imzo: Sug'urtalovchi

Imzo: Naf oluvchi

«shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash»
sug'urta qoidalariga 1-ilova

«shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash to'g'risida»

ARIZA-ANKETA

"MY-INSURANCE" AJ ST hamda «BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MChJ bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan "shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash" sug'urta qoidalariga muvofiq quyidagilarga sug'urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1.	Naf oluvchi:	
2.	Naf oluvchi manzili:	
3.	Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi:	
4.	Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi manzili: JSHSHIR (PINFL): Telefon raqami:	
5.	mikroqarz miqdori:	CREDIT SUM (CREDIT SUM UZ) so'm
6.	Sug'urta hodisasi:	202 - yil " " da «BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MChJ bilan tuzilgan bosh shartnoma doirasida tasdiqlangan Sug'urta qoidalarining 3-bo'limiga asosan
7.	Sug'urta puli:	POL_OTV (POL_OTV_UZ) sum
8.	Sug'urta mukofoti:	POL_PREM (POL_PREM_UZ) so'm
9.	Sug'urtalash davri:	POL_BEG_UZ y. soat 00-00 dan, POL_END_UZ y. soat 24-00 gacha.(ikkala sana ham kiradi)
10.	Mazkur shartnomada (polisda) bayon qilinmagan barcha Sug'urta qoidalarida belgilangan qoidalar asosida tartibga solinadi.	

"MY-INSURANCE" AJ STning sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofotini yoki uning qismini o'z vaqtida to'lash sharti bilan " " 202_ yildan boshlab kuchga kiradi va " " 202_ yilgacha amal qiladi.

Ushbu sug'urta shartnomasi rasmiylashtirish uchun ariza bergunimga qadar "jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni Shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni sug'urtalash" sug'urta qoidalariga menga taqdim etildi. Men ushbu sug'urta qoidalariga va subrogatsiya shartlari bilan to'liq tanishib chiqdim va "jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni Shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni sug'urtalash" sug'urta qoidalaridagi shartlar menga to'liq to'g'ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e'tirozim yo'q. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi

(FIO va imzo)

Mazkur ariza anketaga Qarz oluvchining pasport/ID karta nusxasi ilova qilinadi.

Imzo: Sug'urtalovchi

Imzo: Naf oluvchi


«shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy
xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni
qaytmaslik xataridan) sug'urtalash»
sug'urta qoidalariga 2-ilova


**«Shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga
ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash»
BO'YICHA SUG'URTA TARIFI**


"MY-INSURANCE" AJ ST hamda «BIZNES FINANS MIKROMOLIYA TASHKILOTI» MCHJ bilan Bosh kelishuvga asosan kelishilgan «shartnoma majburiyatlarini buzish holatida moliyaviy xavfni (jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarni qaytmaslik xataridan) sug'urtalash» sug'urta qoidalariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga to'lab beriladigan sug'urta mukofotini hisoblab chiqishda qo'llaniladigan sug'urta tarifi:

T/r.	Sug'urta qaltisligi	Shartli sug'urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	Sug'urta qoidalarining 3-Bo'lim 3.1.- bandiga asosan	10	yillik

**Sug'urta tarifi tomonlar kelishuviga ko'ra ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*


Imzo: Sug'urtalovchi




Imzo: Naf oluvchi

